

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, ingliz tili 2-fakulteti, "Ingliz tili integrallashgan kursi №2 kafedrası" p.f.n., dotsent Muhammedova Nilufar Eliboyevna taqrizi ostida

Abdurahmonova Muslima Fazliddin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

ingliz tili 2-fakulteti talabasi

Telefon raqami: +998934301135

Orcid: <https://orcid.org/0009-0006-3650-1968>

Email:

abdurakhmonovamuslimakhon@gmail.com

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA QO'LLANILUVCHI XALQARO METODLAR: NAMUNAVIY METODLARNING O'XSHASHLIK VA FARQLI JIHLTLARI HAMDA ULARNI AMALIYOTDA QO'LLANILISH USULLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishda keng qo'llanib kelinayotgan xalqaro metodlar haqida so'z yuritilgan bo'lib, ularning nima maqsadda yaratilgani, qay tartibda amaliyotga joriy etilayotgani misollar yordamida yoritib berilgan. Ikki turlicha metodlar namunasida ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqli jihatlari, ular rivojlanish oladigan ko'nikmalar to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Xorijiy tillar, Hyubner, Riverz, audiolingual metod, umumiy fizik javob metodi, so'zlashuv, talaffuz, harakatlar.

МЕЖДУНАРОДНЫЕ МЕТОДЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ: СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ ОБРАЗЦОВЫХ МЕТОДОВ И МЕТОДОВ ИХ ПРАКТИЧЕСКОГО ПРИМЕНЕНИЯ

Аннотация: В данной статье на примерах рассказывается о международных методах, которые сегодня широко используются в преподавании иностранных языков, какова их цель и как они применяются на практике. На примере двух разных методов обсуждаются сходства и различия между ними, а также навыки, которые они могут развивать.

Ключевые слова: Иностранные языки, Хюбнер, Риверс, аудиолингвальный метод, метод тотальной физической реакции, говорение, произношение, физические движения.

INTERNATIONAL METHODS USED IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES: SIMILARITIES AND DIFFERENCES BETWEEN EXEMPLARY METHODS AND METHODS OF THEIR PRACTICAL APPLICATION

Abstract: This article talks about the international methods that are widely used in teaching foreign languages today, what is their purpose, and how they are put into practice, with the help of examples. In the example of two different methods, the similarities and differences between them and the skills they can develop are discussed.

Keywords: Foreign languages, Huebner, Rivers, audiolingual method, total physical response method, speaking, pronunciation, physical movements.

Kirish

Xorijiy tillarni o'rganishni boshlagan o'quvchi, avvalo, lug'at boyligini oshirishga katta e'tibor qaratadi. Sababi shundaki, ma'lum bir tilda qancha ko'p so'z zaxirasiga ega bo'linsa, o'sha tilda erkin so'zlasha olish imkoniyati paydo bo'ladi. Zero, til o'rganishdan asosiy maqsad atrofdagi insonlar bilan samarali muloqot olib borish va shu jumladan, dunyo mamlakatlarida yuz berayotgan yangiliklar va kashfiyotlardan boxabar bo'lib, ularning bir qismiga aylanish imkoniga ega bo'lishdir. Ta'kidlanganidek, xorijiy til o'rganuvchilari so'zlashuv mahorati katta ahamiyatga ega bo'lib, u yozish mahorati bilan birgalikda tilning ustuni sifatida xizmat bo'ladi. Hyubner(1969:203)ning ta'kidlashicha, so'zlashish muloqotdagi eng muhim jihat bo'lib, hayotimizda o'qish va tinglashga nisbatan ko'proq qo'llanadigan birlikdir. Riverz(1964)ning fikricha, so'zlashish qobiliyati insonning fikrlari, qarashlari hamda tuyg'ularini ifoda etishni ta'minlaydi. Xorijiy tillarni o'qitishda qo'llaniluvchi audiolingual hamda umumiy jismoniy javob metodlari ham yuqorida keltirib o'tilgan fikrlarni qo'llab-quvvatlovchi usullardan biridir.

Audiolingual o'qitish metodiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ushbu metod og'zaki nutqqa asoslangan va kuchli nazariy bazaga egadir. Audiolingual metod o'rganuvchilarda so'zlashish hamda eshitish mahoratini shakllantirib, mavjud imkoniyatlarni kengaytiradi. Audiolingual metod qaytarishga asoslangani bois ma'lum miqdorda yodda saqlash qobiliyatini ham kuchaytiradi. Bundan tashqari, audiolingual metodi orqali til o'rgatish hamda o'rganish to'g'ri talaffuz qila olishga zamin yaratadi.

Umumiy jismoniy javob metodi lug'atlarga asoslangan metod bo'lib, asosan, so'zlarni jismoniy harakatlarni ko'rsatish bilan o'rgatiladi. Ushbu metod ham o'rganuvchilarning xotirasini mustahkamlashga sezilarli hissa qo'shadi. Xorijiy tildagi so'zlar harakat yordamida yoritib berilgani bois o'quvchining xotirasida uzoq muddat saqlanadi.

Audiolingual metodda o'quvchilar avvalo so'zlar, so'z birikmalari hamda gaplar bilan tanishtiriladi. Ularga notanish bo'lgan so'zlar izohlar yoki o'rganuvchilar nativ so'zlashuvchi bo'lgan tillarda tushuntiriladi. Shundan so'ng o'qituvchi navbatma-navbat xorijiy tildagi gaplarni talaffuz etadi. Bir marta to'liq tushuntirishdan so'ng o'quvchilar bosqichma-bosqich o'zlari mustaqil talaffuz etishni boshlaydilar. Ushbu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarning har birining talaffuziga e'tibor qaratib, ularning talaffuz savodxonligini tekshiradi. Agar u kimdadir kamchilik sezsa, aynan shu o'quvchining o'zi bilan individual ishlagan holatda ular o'zlashtirishga qiynalgan so'zlarni o'rganishga yordam beradi. Toki o'quvchilar berilgan matn yoki dialogdagi so'zlarni to'liq va bexato o'zlashtirmaganlaricha, ushbu jarayon qaytariladi.

Umumiy javob metodi ham so'zlarni qaytarishga asoslanganligi bois, ushbu metodda ham audiolingualdagi kabi jarayonlarga duch kelishimiz mumkin. Ya'ni, ushbu metodda ham o'qituvchi o'quvchilariga, avvalo, so'zlarni o'zi aniq talaffuz etgan holatda o'rgatishni boshlaydi. Lekin ushbu jarayonda yana bir qo'shimcha harakat qo'shiladi: So'zlar harakatlar yordamida ko'rsatib beriladi. 1-bosqichda faqatgina o'qituvchi so'zlarni talaffuz etadi va atigi bir necha o'quvchilar uning ortidan mos harakatlarni qaytaradilar. Keyingi bosqichlarda esa qolgan o'quvchilar ham jarayonda faol ishtirok etadilar.

Tahlillar va natijalar

Audiolingual va umumiy jismoniy javob metodlari yordamida til o'rgatishning amaliyotga tadqiq etilishi darslar orqali yuzaga keltiriladi. Audiolingual metod qo'llangan dars, taxminan, shu ko'rinishda bo'ladi. Avvalo, o'qituvchi o'quvchilarga ma'lum bir tekstni taqdim etadi. Oddiy dialog shaklidagi matnlar ushbu metodni tatbiq etish uchun eng qulay vositadir:

- Salom, Meri.
- Salom, Anna. Ahvollaring yaxshimi?
- Yaxshi, ishlaring joyidami?
- Yomon emas. Bugun havo juda yaxshi, shunday emasmi?
- Ha, to'g'ri aytasan. Men havoning ertaga ham xuddi shunday bo'lishini xohlardim.

Yuqorida berilgan dialog asosida audiolingual metodi yordamida til o'rgatish amalga oshiriladi. Birinchi navbatda o'qituvchining o'zi to'liq matnni o'qib (aytib) beradi. Shundan keyin u o'quvchilar bilan boqichma-bosqich matnni qaytarishni boshlaydi. Bunda har bir o'quvchiga individual yondashuvga ahamiyat beriladi. Shu boisdan o'qituvchi jarayonning boshida to'liq sinf bilan matnni qaytarsa, keyingi bosqichlarda kichik guruhlar bilan bu ishni amalga oshiradi. Ushbu yo'l bilan u guruhlarda talaffuz etishga qiyalayotgan yoki xatolikka yo'l qo'yayotganlar bilan yakkama-yakka ishlaydi. Endi faqat aynan shu o'rganuvchilargina so'z va iboralarni takrorlaydilar. Ular duch kelgan qiyinchiliklar bartaraf etilgunga qadar o'qituvchi ishlashni davom etadi. Toki, barcha o'quvchi so'zlarni aniq va ravon talaffuz etmagunlaricha matnning qolgan qismlari talaffuz etishga yo'l qo'yilmaydi. Aynan shuning uchun ham bu metod o'quvchilarning xotiralarini mustahkamlashlari uchun ham sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Umumiy jismoniy javob metodida o'qituvchi ma'lum bir so'zlarni ularga mos harakatlarni ko'rsatish bilan o'rgatadi. Ushbu so'zlar ko'pincha buyruq yoki yo'nalish berish ohangidagi iboralardan tashkil topgan bo'lib, har biri qaytarilganda ma'lum harakat bajarilishini taqozo etadi. Masalan, *turing, o'tiring, sakrang, yuring, to'xtang, eshikni ko'rsating, stolni ko'rsating, stolni ko'rsating* kabi elementar so'zlarni aytish va qaytartirish bilan birgalikda, harakatlar ham amalga oshiriladi. Avvaliga o'qituvchi o'quvchilar orasidan 2 yoki 3 nafar ko'ngillilarni tanlab oladi. So'zlar faqat o'qituvchi tomonidan aytilib, harakatlar o'qituvchi ishorasi orqali ko'ngilli talabalar bilan birga bajariladi. Ushbu jarayon bir necha bor takrorlanadi. Endilikda buyruqlar qamrovi kengayib, o'qituvchi tomonidan beriluvchi so'zlar ko'payadi. O'quvchilar oldingidek buyruqlarni bajaradilar: turadilar, o'tiradilar, aylanadilar. Vaqt o'tgani sayin so'zlarning soni va tartibi o'zgarib boradi. O'qituvchi so'zlarni tasodifiy ketma-ketlikda, oldingilariga nisbatan tezroq ayta boshlaydi. Endilikda o'qituvchi ko'ngillilar ichidan bir kishini uning buyruqlarini yolg'iz bajarish uchun tanlab oladi va so'zlarni tez hamda ma'lum tartibsiz ayta boshlaydi. Keyingi bosqichda esa ularni kuzatib o'tirgan sinf jarayonga jalb etiladi. Shu paytgacha o'rgatilgan har bir so'z qaytarilib, monand harakatlar amalga oshiriladi. Sinfidagi barcha o'quvchilar ushbu so'zlarni o'zlashtirganlaridan so'ng keyingi bosqichga o'tiladi. Endi o'qituvchi ko'ngillilar oldin duch kelmagan buyruqlarni beradi. Tanlangan o'quvchilar biroz chalkashliklar bilan buyruqni bajara boshlaydilar. O'qituvchi nafaqat oddiy, balki murakkab tarkibdagi gaplarni ishlatish bilan harakatlarni bajartiradi.

So'nggi bosqichda o'qituvchi oldingilardan farq qiluvchi yangi so'zlarni doskaga yozib, harakatlarni ko'rsatib beradi. Sinfidagilar ushbu so'zlarni daftarlariga ko'chirib oladilar.

Shu bilan dars nihoyasiga yetadi. Oradan biroz vaqt o'tgandan so'ng xuddi o'sha o'rganuvchilar tekshiriladi. Ular darsda umuman gapirmagan bo'lsalar-da, o'rgatilgan so'zlarni qatnashtirgan holda o'qituvchi va o'quvchilarga ushbu buyruqni bajartiradilar. Bu shuni ko'rsatadi-ki, eslab qolish orqali maqsad qilingan natijaga erishilgan.

Muhokamalar

Audiolingual va umumiy fizik javob metodlarida bir necha o'xshashlik va farqli jihatlar mavjud. Jumladan, ikkala metodda ham o'qituvchi, ham o'quvchi teng ravishda ishtirok etadi. Ularning barchasi ma'lum bir vazifani bajaradi. Farqli jihatlariga to'xtalsak, audiolingual metodda nafaqat o'qituvchi, balki o'rganuvchilar ham gapiradi. Umumiy fizik javob metodida esa so'zlash faqat o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, audiolingual metodda butun tekstlardan foydalanilsa, umumiy fizik javobda faqatgina kichik buyruqlar bajariladi hamda ularning deyarli barchasi harakatlardan iborat bo'ladi. O'rgatish uchun zaruriy materiallar ikkalasida ham faqat doska hisoblanib, boshqa metodlardan farqli ravishda maxsus darslik yoki qo'llanmalardan foydalanilmaydi. Ikkala metodda ham o'rganish jarayoni nisbatan tezroq sodir bo'lib, natija yaqin fursatlar oralig'ida ko'rinish boshlaydi.

Xulosa

Zamonaviy o'qitish tizimida til o'rgatishning bir necha yangi metodlari yaratilgan bo'lib, dunyo bo'ylab pedagoglar hamda tadqiqotchilar tomonidan faol qo'llanilib kelinmoqda. Ularning har bir o'rganuvchilarning yoshi, bilim darajasi hamda o'zlashitish qobiliyatiga qarab bir necha kategoriyalarga ajratilgan. Shunday metodlar qatoriga audiolingual hamda umumiy fizik javob metodlari ham kirib, o'qitishda katta rol o'ynab kelmoqda. Ushbu metodlar bir-biridan farq qilib, dars jarayonida turlicha holatda qo'llaniladi. Ammo shu bilan birgalikda ular o'rtasida ma'lum o'xshashliklar ham mavjud bo'lib, uzbek jihatkar muhim tadqiqot manbalari sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rivers, W. (1964). *The psychologist and the foreign language teacher*. Chicago University press
2. Mart, S. T., (2013). *The Audio-lingual Method: An Easy Way of Achieving Speech*. *International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences*, Vol. 3, No.12.
3. Nita, A., & Syafei, F. R., (2012). *Involving Audio-Lingual Method (ALM) and Communicative Language Teaching (CLT) In Teaching Speaking Skill at Junior High School*. *Journal of English Language Teaching, Vol. 1 No. 1*.
4. Rahman, H., Et Al. (2020). *Audio-Lingual Method To Improve Students' Speaking Skill At Smp Negeri 1 Baranti*. *La Ogi: English Language Journal*, 6(1), 15–21. <http://Jurnal.Umsrappang.Ac.Id/Laogi/Article/View/215>
5. Asher, J. 2009. *Learning Another Language Through Actions: The Complete Teacher's Guidebook* (7th edn.). Los Gatos, CA: Sky Oaks Productions.
6. Garcia, R. 1996. *Instructor's Notebook: How to Apply TPR for Best Results* (4th edn.). Los Gatos, CA: Sky Oaks Productions.
7. Krashen, S. and T. Terrell. 1983. *The Natural Approach: Language Acquisition in the Classroom*. Hayward, CA: The Alemany Press.